


Forish tuman axborot-kutubxona markazi axborot-bibliografiya xizmati

Shoir, jurnalist, davlat va jamoat arbobi Sa'dulla Hakim hayoti va ijodi haqida bibliografik qo'llanma



Forish-2025-yil



Mundarija

1. So`z boshi

2.Tarjimayi holi

3.Mehnat faoliyati

4.Mukofotlari

5.Ijodi

6.Ijodidan namunalar

7.Mo`jaz doston taasurotlari

8. Zaminga tutash antenna

9.Manbalar

Soʻz boshi

Shoirning bolaligi Nurota tizma tog'i orasida joylashgan betakror tabiatli ana shu qishloq qo'ynida kechdi. «Go'yo yashil maysazordan nur tarayotgandek taassurot uyg'otuvchi mayin ko'klam yomg'irlari. Qirmiz gulxan chirmashgan kuz bog'lari. «Men bularni hanuz unuta olmayman, hanuz sog'inib yashayman», — deb eslardi shoir bolalik yillarini. Ana shu go'zal va nafis tabiat isi, rangi, borliq u yaratgan she'riyatning ma'no va mazmuniga kirdi.

Tarjimai holi



Shoir, jurnalist, davlat va jamoat arbobi Sa'dulla Hakim 1951-yil 25- martda Jizzax viloyati, Forish tumanidagi Garasha qishlog'ida tug'ildi. ToshDU (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning jurnalistika fakultetida tahsil oldi. Sa'dulla Hakim 2020-yil 10- oktyabrda Toshkent shahrida vafot etdi. 2021-yilda shoirning 70 yillik yubileyi davlatimiz va adabiy jamoatchilik tomonidan keng miqyosda nishonlanib, shoir yashagan uyga yodgorlik lavhasi o'rnatildi.

Mehnat faoliyati

Mehnat faoliyatini 1966-yilda Jizzax viloyati G'allaorol tumanidagi 90-maktabda o'q'ituvchi vazifasidan boshladi. So'ng, "O'zbekiston sotsial ta'minoti" jurnalida, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" va "O'zbekiston ovozi" gazetalarida mas'ul kotib, adabiyot va san'at bo'limi mudiri lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. "Ma'rifat" gazetasiga rahbarlik qildi (1992–1996). 1996-1999 yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida mas'ul lavozimlarda ishladi. "Turkiston press" Axborot agentligi bosh direktori (2003-2010), "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi bosh muharriri (2010-2014), O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi rahbari (2016-2020) vazifalarida xizmat qildi.

Mukofotlari

Sa'dulla Hakim "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist", "Mehnat faxriysi" unvonlari, "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan.

Sa'dulla Hakim ijodi



Sa'dulla Hakimning "Hamal tonglari" (1981), "Sen kutgan bahor" (1986), "Yoz oqshomi" (1996), "Ona so'z" (2000), "Saylanma" (2001), "Ko'ngil yuzi" (2006), "Ko'hna naql" (2011), (2019) she'riy kitoblari nashr etildi. Gyote, Pushkin, Lermontov, Yesenin, Yunus Emro kabi shoirlarning she'rlarini

tarjima qildi. "Saylanma" kitobi uchun 2002-yili "Eng ulug', eng aziz" respublika tanlovi g'olibi bo'ldi.

Ma'naviy hayotimizga oid "Esimda qolgan kunlar", "Atom qa'riga sayohat" kabi publitsistik asarlarida xalqning fidoyi insonlari bosib o'tgan yollari yoritildi. Uning tarixiy qahramonlikni ulug'lovchi "Olis yulduz" (1980) dostoni muxlislar e'tiboriga sazovor bo'ldi. Dostonda shoir vatan ozodligi uchun olib borilgan kurashlarni tarixiy voqealar orqali yoritib, hurlik va erkinlik g'oyalarini ilgari suradi. "Oqsaroy" (2001) manzumasida istiqlolimiz va davlat boshqaruvi ramziga aylangan Oqsaroy qarorgohi tarixiy-zamonaviy nuqtai nazardan mushtarak obraz sifatida tarannum etilsa, "Bola Botir" dostonida (2013) badiiy so'zning ulkan maqsadlar va mustahkam e'tiqod yo'lidagi o'rni, ahamiyati tiniq obrazlar vositasida ochib beriladi. Shoirning vatan tarixi va uning shonli siymolariga mehr-muhabbat, ulardan faxr va iftixor tuyg'ulari hamda elim, yurtim deb yashagan fidoyi insonlarga xos yuksak fazilatlar badiiy tarannum etilgan "Yurt o'g'loni" (2019) dostoni adabiy jamoatchilik nazariga tushdi.

Sa`dulla Hakim ijodidan namunalar

Navoiy va Bobur

Ona tili ori, g'ururi
Asrlardan sado beradi.
Navoiydan so'z ayta turib,
Tilga Bobur kelaveradi.
Olti kunda yaralmish olam
Va odam ham. Shukrona ayta
Biz fevralning olti kunida
Tug'ilamiz har yili qayta.
Hali borliq qish uyqusida,
Hali ko'zin ochmayin bodom, —
Turkiy zamin kengliklarida
Chaparasta gullaydi odam.
Sen, ey ko'ngil, gar tilarsan xo'b,
So'z sehridan umringga najot, —
Mir Alisher etagini o'p,
Bobur Mirzo eshigida yot...

Ona tili ori, g'ururi
Asrlardan sado beradi.
Navoiydan so'z ayta turib
Dilga Bobur kelaveradi!

Hayot qo'shig'i


Sig'mas sohiliga suman Saraton,
Yerdan ko'kka qadar buyuk bir dala.
Baxmal amlokidan don terib, har tong
Osmon tandiriga non yopar Falak.
Non uchun olovga bosh suqar Ayol,



Qayda fidoyilik bor yana buncha?
Quyosh-ku Samarqand noniga timsol,
Oy – bu kichkintoyga atalgan kulcha.
Ona O'zbekiston ma'volarida
Oltindek tovlanar bug'doy xirmoni.
Boshqoq parvoz etar qush tumshug'ida,
Tinmas chumolilar yukli karvoni.
Har yonda to'kinlik, kushoyish, kenglik,
Tangri ayamadi obi rahmatin.
Mulku dafinaga er-egamenlik
Uyg'otdi dehqonning mudroq rag'batin.
Zamona hikmati, fikr gavhari:
«Asl egasiga mulk ila yer ber.
O'zi to'qu obod bo'lgani sari
Yurtini ham obod aylagay fermer».
O', bu qadim tuproq! Bag'rida yashar
Farhod teshasining yarqiroq izi.
Asrlar qa'riga tutashib ketar
Qayroqi bug'doyning popuk ildizi.
...Sig'mas sohiliga suman Saraton,
Yerdan ko'kka qadar buyuk bir xayol.
Tandirga kamonday egilib, har tong
Quyoshdek qirmizi non uzar Ayol!

O'zbekiston

Sen onam, singlimsan, yorimsan azal.




Abdulla Oripov

Odam Atodan to bu kun
Choptirib umr chobukin,
Asragan el millat yukin,
Otam, onam, yorim, bolam
Suysam — navo, kuysam – nolam,
Jon Vatanim,
Jon va tanim
O'zbekiston.
Bu yo'llarda nor izi bor,
Yomg'ir izi, qor izi bor.
O'zbek izi, or izi bor,
Otam, onam, yorim, bolam
Suysam — navo, kuysam – nolam,
Sen Vatanim,
Jon va tanim
O'zbekiston.
O'zbek elim ulkan chinor,
To'qson ikki tomiri bor,
Shoxlarida yulduz yonar,
Otam, onam, yorim, bolam
Suysam — navo, kuysam – nolam,
Jon Vatanim,
Jon va tanim
O'zbekiston.
Sa'dulloning suyar so'zi,
Tiriklikda ko'rar ko'zi,
Avval o'zi, azal o'zi —

Otam, onam, yorim, bolam
Suysam — navo, kuysam – nolam,
Jon Vatanim,
Jon va tanim
O'zbekiston

Nashr etilgan kitoblari



Sa'dulla Hakim

Bola botir. She'rlar

MO'JAZ DOSTON TAASSUROTDLARI

Hay, bolalik yillarim-a!

Uning sehlari, hayratga to'la katta-katta ko'zlari qayoqlarda qolib ketdi ekan? Yulduzlar yulduz emas, jannat tomoshasi edi-ku! Tog'lar oralab chiqayotgan quyoshning ilk nurlari biz bilan go'yoki o'ynashar, botayotgan oftob ruxsori esa pahlavon bobomizning yuzlari yanglig' qizarib turardi. Qishning uzun va sovuq kechalarida og'ilxona qoramollar nafasi bilan isib ketar, biz bola-baqralar esa biron chechan amaki atrofida to'planib, xira moychiroq yorug'ida ertak tinglaganimiz-tinglagan edi. Ertak ichida bo'ri ham, tulki ham, arslon ham bor. Qurbaqaga aylangan malika-yu, yigitga aylangan sher ham. Ular bizga qadrdon bo'lib ketgandilar.

Ayniqsa, tulki. Bu satang, olifta jonivor goh taviyaga, goh parivashga aylanar edi. Oh, uning nozlarini eslang... U hatto kechalari daricha yoniga kelib gap ham poylaydi, deyishardi.

Bo'lsa bordir.

Tong otar, yer ko'karar, bog'lar gullab, hosilga kirar, zardoliyu olmalar pishar:

«Olmaning nozikligidan
Ko'rinadir donasi.
Bargiga shabnam qo'nibdir,
Men uning devonasi».

Olmaning ichidagi donalariniki ilg'agan ko'z egasi uning bargiga qo'ngan shabnamga boqqanda devona bo'lmasmi? Qayda qoldi o'sha mo'jizalar, qayda qoldi o'sha shikasta va toza xayollar...

Odamlarimizning qo'llari qadoq, g'adirbudir, tovonlari qorayib tars yorilib ketgan. O'sha zamonlarning mehnatu muhiti shunaqa edida. Lekin ularning o'ychan ko'zlarida afsonalar, rivoyatlar yashardi. Afsonalarda esa – ramzlar.

Yaxshiyam, bu dunyoda ko'ngil qatidagi mudroq hislarni qaytadan uyg'otadigan, ezgu xotiralarni yodga soladigan kitoblar bor. Chingiz Aytmatov asarlarini eslayman. Buyuk muallifning talqinicha, odamlarning bir qavmi qachonlardir Shoxdor Ona Bug'udan o'rgan, beozor bolakay dengizdan panoh izlab, baliqqa aylangisi keladi, mangu ayriliqqa mahkum baxtiqaro kelinchakning ruhi esa tog'u toshlar aro darbadar kezib yuradi. Bular – achchiq taqdirlar, bular yuksak va sirli poeziyadir. Odam bolasi kitob o'qiyotganda uni yozuvchi yozganini unutsa, deyman.

Asarning ichida kitobxonning o'zi ham yashasa, deyman.

Shoir Sa'dulla Hakimning «Bola Botir» dostonini o'qiy turib, men shundoq xayollarga bordim.

Darhaqiqat, Bedil hazratlari aytganidek, asl she'riyat o'ziga xos bir olamdир, u uchinchi dunyodir. Shoirimiz ajib bir hikoyat bitibdi. Dostonda chuqur falsafiy-ma'joziy ma'noga ega shunday satrlar bor:

«Neki yaralmish, bari
So'zning jismu tanidir.
So'z – chig'anoq gavhari,
Ko'ngil so'z vatanidir».

Asarning shaklu shamoyili uning umumiy ruhiga g'oyatda mos, xalqona. Sa'dulla Hakim o'z qahramoni Bola Botir (baxshi)ni bir o'rinda quyidagicha ta'riflaydi:

«U qo'shiq aytayotganda otliq otidan tushgan,

O'tirgan odam o'rnidan turib ketgan,

Tik turgan odam o'tirib qolgan».

Xullas, shoirimiz o'z uslubini azaliy sharqona qissago'ylik bilan vobasta qila bilgan.

Dostonda baxshiyona ruh ustuvor.

Bola Botir obrazi – maqsad va e'tiqod yo'lida so'zni anglash orqali mohiyatga erishish timsoli. So'z jamolida Yaratgan jamolini ko'rish ishtiyoqida bir umr zoru nigoron o'tgan Donishmand chol kabi. Pari qiyofasida oshiqlik timsolini ko'rib mastu behud bo'lgan Bola Botirning o'zi kabi. Har ikki holda ham jonfidolik maqsad sari yetaklaydi. Dostonda aytilganidek: «O'zini unutmay O'zini tanigan bormi?». Qadim va yuksak ko'zqarashning yangicha talqinlari emasmi bu fikrlar?

Ana shu xususiyatlariga ko'ra «Bola Botir» ham shaklan, ham mazmunan ohorli doston bo'libdi, deyishga asosimiz bor.

Badiiy ijodni taraqqiyotsiz, yangicha yondashuvlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi, albatta. Lekin u qadimiy, mustahkam poydevorlarimiz ustida qad ko'tarsa, yana ham yaxshiroq. Menga ushbu mo'jaz doston o'sha qo'rg'onlar uzra bo'y ko'rsatgan nafis chechakka o'xshab ko'rindi.

Abdulla ORIPOV,

O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri.

ISHQING O'TIDA KUYDIM

*Ey yor, sening ishqingda ishqing o'tida kuydim,
Suydim kul bo'lib, yana gulday ko'karib suydim.*

*Har so'zing yomg'ir kabi malham bo'ldi dilimga,
Eshitgan bormi, tashna desa ki, ichib to'ydim.*

*Sendan ko'zim uzmoqqa qiymadi ko'zim, shundan
O'zgalarning ko'zidan hargiz ko'zimni qiydim.*

*Ro'zador borki o'zni tiygusi yomon so'zdan,
Sening nomingdan o'zga so'zdan men o'zni tiydim.*

*Tilim totli bo'lsin deb bol yalaydi odamlar,
Men tilimga bol kabi sening nomingni qo'ydim.*

*Kuz quyosh sog'inchida kiygan kabi za'far to'n,
Hijron choponim bo'ldi, sog'inchdan do'ppi kiydim*

KO'NGLI ZOR

*Ko'ngli zor bilgay ko'ngilning zorini,
Etmagay yor dardu g'amga yorini.*

*Mastu behud qilmasa ishq, hech kishi,
Sevmagay mendek o'shal ayyorini.*

*Dardga malham uch mahal achchiq dori,
Men shifo bildim sanam ozorini.*

*Ikki gul bargi tilim etdi chuchuk,
Bol berib yozdi dilim xummorini.*

*Endi ne bo'lgay desam, ul aytdiki,
Bol shimib, bol birla boqqay yorini.*

*Men dedim, tomirda sharbat nash'asi
Oqmasa ochgaymi gul uzorini?*

*Bori gap shulmi deya, yor, injima,
Bo'lmadi aytib Sa'dullo borini!*

DASHT QIZI

*Ey sochlarini shamol o'rigan dasht qizi,
Ey ko'zlarini quyosh qo'rigan dasht qizi.
Sen na yeru va na osmondan,
Sen malaklar yurti tomondan.*

*Ey labi – tog'olcha, yuzi – qizg'aldoq,
Qulog'ida ikki bo'lik oy baldoq.
Sendan kelar shuvoq ifori,
So'zing shifoliyu, o'zing shifoli.*

*Sen bu dunyoga gavhar bo'lib kelgansan,
Gavhar aziz zamonni bilib kelgansan.
Seni izlab erta kelgan men,
Qismatidan taqdir kulgan men.
Sen qorong'u xonaga tushgan tolai nur,
Sen kuygan yurakka tomgan qatra yomg'ur.
Sen hech unutilmas yod,
Sen o'chmas unsiz faryod.
Ey sochlarini shamol o'rigan dasht qizi...*

YANGI YIL ORZUSI

*Qorbobo kelmaydi o'rmon oralab,
Ertakdan chiqmaydi Qorqiz ham, ayon.
Qorbobo kelarmish desa, voajab,
Eshikka boqaman boladay shodon.
Qorbobo qor olib kelsin bu kecha,
Qish yozsin poyandoz, es kirmasin kech.
Eski do'stlar qolsin eskiligicha,
Yangi do'stlar esa eskirmasin hech!*

Toshkentga ilk bora kelganida bu yigitchaning ko'zlari porlab, hamisha she'r zavqi bilan jo'shib turar edi. Qancha shamollar esib o'tdi, qancha bulutlar bosib o'tdi, qancha ayqirgan soylarni kechib o'tdi, qanchadan-qancha o'tli she'riy satrlar dunyoga keldi, Sa'dulla hamon o'sha-o'sha vijdon amri bilan yashadi, ilhom amri bilan she'r bo'stonlariga kirdi.

Ibrohim

G'AFUROV

ZAMINGA TUTASH ANTENNA



Sa'dulla Hakimning birinchi she'rlari matbuotda ko'rina boshlaganiga o'ttiz yil, uning ilk kitobi "Hamal tonglari" nashr etilganiga yigirma yil bo'lib qolibdi. Umri uzun va sermeva bo'lsin, yoshi ham mana ellikni (maqola 2001 yilda yozilgan. XDK izohi) qoralabdi. Toshkentga ilk bora kelganida bu yigitchaning ko'zlari porlab, hamisha she'r zavqi bilan jo'shib turar edi. Qancha shamollar esib o'tdi, qancha bulutlar bosib o'tdi, qancha ayqirgan soylarni kechib o'tdi, qanchadan-qancha o'tli she'riy satrlar dunyoga keldi, Sa'dulla hamon o'sha-o'sha vijdon amri bilan yashaydi, ilhom amri bilan she'r bo'stonlariga kiradi.

Sa'dulla Hakim bog'bonning o'g'li. Hakim Rahmat bog'bonning o'g'li. Otasiga hayot yo'llarida bo'taloqdek ergashib katta bo'lgan. Ne ajabki, uning she'ridan bog' isi, bog' tarovati keladi.

Umuman bog'larning emas, balki baayni Garasha bog'lari, Garasha uzumzorlari, tog'laridagi anvoyi o't- o'lanlarning hidi, tarovati gurkirab keladi.

Uning she'rlari, yozganlarini o'qiganda, Garashaning tog'lar, tog' etaklariga xos, tog' ruhi, fasonasi aks etib turadigan, sodda bo'lsa ham, loysuvoq bo'lsa ham, ko'rkam uyli xonadonlariga kirib borgandek bo'lasiz.

Balki siz bilan biz ko'pchiligimiz Garashada bo'lmagandirmiz. Balki siz bilan biz sal beriroqdan, aytaylik, Azim Suyunning tog' etagidagi so'lim qishlog'idan qaytgandirmiz. Lekin Azim Suyun kuylagan Ko'lto'sinu Nakrutdan ham, dunyoning benihoya olis chekkasida qolib ketganday tuyuladigan Qoraabdoldan ham Garasha ko'rinib turadi. Mabodo siz so'ramasangiz ham, do'stlarimiz: "Ho'-o'v narida Garasha qishlog'i bor, u yerda Sa'dulla Hakim tug'ilgan" deyilar.

Nakrut Azim Suyun nomi bilan tanilgan bo'lsa, Garasha Sa'dulla Hakim nomi va she'rlari bilan tanildi. Holbuki, ilgari ne-ne tarixlar o'tib, Garashaning Garashaligini va Nakrutning Nakrutligini juda kamdan-kam odamlargina bilardi. Ikki shoirning nomi bilan bu tog' qishloqlari she'riyatimiz tushunchalari, jo'g'rofiyasiga kirib keldi.

Yaxshi she'r joyni, makonni abadiyatga muhrlaganidek, yaxshi shoir elining shuhratiga shuhrat qo'shadi. Elini she'riy zabonga oshno qiladi. She'riy zabon bilan xalq madaniyatli xalqlar safiga kiradi. Uchinchi sinfda o'qiyotgan nabiram o'zining shirin tili bilan "O'zbekim"ni yodlayapti, ya'ni she'riy tili chiqyapti. Murg'ak diliga millat ruhi, tarixi va tarixining qatlamlari o'rnashyapti.

She'riy so'z hamisha xalq madaniyatining birinchi belgisidir. U xalqda fikr va tuyg'ular madaniyati ravnaq olganligidan dalolat beradi. Neko'z, Oltiariq, Boysun, Spassk-Lugovinovo, Yasnaya Polyana, Tarxani, Qoratosh, G'azni, Rustaveli, Mo'liyon va insoniyatning boshqa yuzlab qasabalari shunday she'riy, badiiy so'z bilan obod bo'lgan, olamga dong taratgan.

Xuddi shuningdek Nakrut va Garasha ham bu shoirlar bilan birga nomdor bo'ldi. Qishloqlar ularning nomlariga uyg'un tushdi.

Bir kuni Azimboy Suvayrilish degan joyga borganimizda "Ibrohim aka, bu yog'iga kirsangiz, kirib ketaverasiz. Biri-biridan yovvoyi go'zal joylar, hali o'z shoirini topmagan..." dedi.

Oldimizda Nurotaning sirli tizmalariga kirib ketadigan ajib tog' oraliqlari xuddi o'qilmagan kitoblarday bo'lib vahshiy jozibasi bilan ko'zlarni rom etib yotardi.

Sa'dulla Hakimning she'rlari ham shunaqa — ichiga bir kirsangiz kirib ketaverasiz, tog'ma-tog', bog'ma-bog', yurakma-yurak o'tib boraverasiz, o'qib boraverasiz, mehr o'rtada kamaymaydi. Ba'zi she'rlari bamisoli Garashaning oppoq patiri — umrlar yashab hech ta'mini unutmaysiz.

Nurota tog'lari tomonlarda, tog'lar ichida, tog'lar etaklarida, tog' qishloqlarida odamlar do'lvor, tanti, sodda, xuddi qoyalarday mustahkam, tog' soylari kabi jo'shgan va o'ta samimiy bo'ladilar. Shuning uchun bo'lsa kerak, bu yurtning valiy-lari ko'p, baxshilari serob.

Sa'dulla Hakimning she'rlari tanti samimiyati bilan odamni o'ziga qaratadi. Mabodo, bir qoyaga har tomondan qarasangiz, u har turli qiyofada ko'rinadi. Tog' cho'qqilariga turli nuqtalardan qarasangiz ham shunday: turli tomondan turli kutilmagan manzaralar ko'zga tashlanadi.

Shoir she'rlarida, uning “Olis yulduz” deb atalgan tarixiy dostonida, nasriy sochmalarida ham shunday kutilmagan go'zal manzaralar, tasvirlar, ajib she'riy ifodalarga duch kelasiz.

Nazaringiz ulardan oddiy bir narsa kabi sirg'alib o'tmaydi, to'xtaydi, nigohingizni o'ziga jalb etadi bu she'rlar. Ular Sa'dulla Hakim original bir shoir ekanligiga dalolat beradi.

Ularda shoir uyg'oq vijdon, odamgarchilik ideallariga amal qilayotganligi, inson axloqining go'zalligini shularda ko'rayotganligi ravshan ko'zga tashlanib turadi.

Nahot mening isyonim

Dilimda qotib qolgan,

She'rlar bitganim yonib

Nahotki bari yolg'on?

O'quvchi bu bezovta satrlarni vijdonning tirik ovozi kabi qabul qiladi. Sa'dulla Hakim millatning uyg'onishi va unda har birimizning tutgan o'rnimiz haqida o'ylar ekan, “safoli, vafoli bog'lanishlar bor” deydi-da, so'ng:

Bizni bog'lab tursin odamgarchilik! —

degan so'zlar bilan she'rga yakun yasaydi. Ba'zan yolg'izliklar, Yaratgan oldidagi “minglar ichra yolg'izlik”, inson istaklari uchun o'ta noqulay qurilgan dunyo odamdan g'olib kelishga intiladi, lekin shunda ham kishi odamgarchilik bilan, botiniy salohiyat, idrok qudrati bilan ulardan ustun chiqishga muyassar bo'ladi. Bu xaqda Sa'dulla Hakimning go'zal satrlari bor:

Osmon guvlar,

Oqar nidolar,

Bu qay sado, bu qizalok, kim?

«Men opaman o'zim-o'zimga,

Men singilman o'zimga o'zim».

Notinch bu sas kelmish qay yerdan,

Bo'zto'rg'aydek bo'zlagan u kim?

«Men akaman o'zim o'zimga,

Men ukaman o'zimga o'zim»...

Sa'dulla Hakim she'rlaridagi mana shunday go'zalliklarning manbalarini o'ylaysiz. Xayolingizga donishmand Jumanbulbul ohanrabosi keladi. Xayolingizdan Nurota tog'larining qadim tilsimotli shukuhi o'chmaydi. Sa'dulla Hakimning Nurota tizmalarini fusunkor qilgan cho'qqilardan qo'shiq aytib tushib kelayotgan holda tasavvur qilasiz.

Bu gaplar bilan Sa'dulla Hakimni ilhomyor shoir demoqchiman, xolos. U dil qo'shiqlari bilan odamlar qalbidan o'rin oldi. Unga shoirlikni tabiatning o'zi ato etgan. U bundan hech qaerga qochib qutulolmaydi. Tabiat ato etmagan narsani esa hech qachon hech kim quvib yeta olmaydi.

Bu shoirning she'rlarini o'qiganda ertaklardagi Eromon botir tog'lar, adirlar osha ko'hna o'zbekona sodda qo'shiqlarimizni dildan ovozini baland qo'yib aytib kelayotgandek bo'ladi. Bu kuylarda yashash va sevish zavqlari baralla yangrab turadi. Bu qo'shiqlarni kuylayotgan odam hamisha, har qanday sharoitda matonatli so'zlarni ayta biladigandek ko'rinadi.

Sa'dullaning otasi marhamatli Hakim Rahmat o'g'li, shu o'zbek bog'boni Garashaga birinchi marotaba radio olib kelgan ekan. Shoir otasining ma'rifatga shunday talabgor va oshno bo'lganligi bilan faxrlanadi. O'sha ongda o'rnashgan bolalik xotiralarining ta'siridamikin, u katta bo'lganda, she'r ilhomi quyilib kelganda o'z she'rlarining zaminga tutash antenna bo'lishini orzu qiladi. Ovozimni shoyad dunyo eshitsa, o'zbekning sasi olam bilan robita bog'lasa, deganday bo'ladi.

Ezgu orzu. Va g'oyatda yaxshi so'z: she'r — zaminga tutash antenna!

Manbalar:

Malumotlar internet tarmog'idan olindi.